

TARJIMA JARAYONINING ASPEKTLARIGA BA'ZI QAYDLAR

F.D.Sapayeva – *filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor*

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Tayanch so'zlar: she'r, tarjimon, tarjima, she'riy takror, bayt va band, ma'no, shakl va mazmun, so'z, radifli she'r, radifsiz tarjima qilish, matn, shoir, Maxtumluli, turkman tili, o'zbek tili.

Ключевые слова: стихотворение, переводчик, перевод, поэтическое повторение, строфа и пункт, смысл, форма и содержание, слово, стихотворение с радифом, перевод без радифа, текст, поэт, Махтумкули, туркменский язык, узбекский язык.

Key words: poem, translator, translation, poetic repetition, verse and clause, meaning, form and content, word, radiff poem, translation without radif, text, poet, Makhtumkuli, the Turkmen language, the Uzbek language.

Tarjima ijrosiga ko'ra yozma va og'zaki turlarga bo'linadi. O'z navbatida, yozma tarjima xarakteriga ko'ra: badiiy asarlar; ilmiy adabiyotlar; rasmiy-idora hujjatlari; publitsistik materiallar; kinofilmlar tarjimasiga bo'linadi.

Bularning har biri yana o'z ichki bo'linishlariga ega. Badiiy tarjima nasriy, she'riy, dramatik asarlar tarjimasini o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlar fanning turli sohalaridagi tadqiqotlar tarjimasidan iborat: tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, falsafa, matematika, fizika, kimyo, biologiya, iqtisod va hokazo. Rasmiy idora hujjatlariga xatlar, qarorlar, bayonnomalar, farmoyishlar, patentlar va boshqalar kiradi. Publitsistik materiallarga maqola, xabar, felyeton, ocherk, pamflet, publitsistika kabi vaqtli matbuot va ommaviy axborot vositalaridagi barcha materiallar kiradi. Kinofilmlar tarjimasini ham badiiy, ilmiy, hujjatli filmlardan tashkil topadi.

Og'zaki tarjima ham keng tarqalgan bo'lib, davlat rahbarlari o'rtasidagi xalqaro ahamiyatga molik siyosiy-iqtisodiy mavzudagi o'zaro fikr almashuvlardan tortib, oddiy suhbatgacha bo'lgan katta doirani qamrab oladi. Og'zaki tarjima ham xarakteriga ko'ra: sinxron tarjima; ketma-ket tarjima; tushuntirib berish; o'qib tarjima qilib berish; o'qib gapirib berish; eshitib gapirib berish kabilarga bo'linadi.

Sinxron* tarjima katta anjumanlar, konferentsiyalar, xalqaro miqyosdagi uchrashuvlarda til bilmaydigan ishtirokchilar uchun amalga oshiriladi.

Ketma-ket tarjimada notiq bir gap yoki abzatsni o'qiydi, tarjimon uni tarjima qiladi – notiq va tarjimon o'rin almashib turadi. Tushuntirib berish biror narsani o'qib, uning mazmunini og'zaki aytib berish. Biror mavzudagi adabiyotni o'qib, jumla-jumla tarjima qilib borish o'qib tarjima qilib berish deyiladi. Biror narsani o'qib, uning shunchaki mazmunini gapirib berish o'qib gapirib berishga kiradi. Eshitib gapirib berish boshqa tilda eshitganini til bilmaydigan kishilarga tushuntirib berish.

Tarjima sohalar bo'yicha quyidagicha bo'linadi: badiiy asarlar; ilmiy adabiyotlar; ijtimoiy-siyosiy kitoblar; rasmiy idora hujjatlari; kinofilmlar; radioeshittirish va teleko'rsatuvlar. Til prinsip (tamoyil) lari bo'yicha: ruscha-o'zbekcha, inglizcha-o'zbekcha, qoraqalpoqcha-o'zbekcha, turkmancha-o'zbekcha tarjima va hokazo. Bilingvizm va tarjima.

Tarixiy an'analar va mahalliy sharoitga oid tipik belgilar bo'yicha (Xorazm tarjima maktabi, Toshkent tarjima maktabi va hokazo). Davrlar bo'yicha: XI-XII asrlar tarjima tarixi, XV asr tarjima tarixi, XIX asr tarjima tarixi. Umuman, tarjima janriy xususiyatiga ko'ra 4 turga bo'linadi: badiiy; ilmiy; publitsistik; rasmiy idora hujjatlari. Bu turlar, o'z navbatida, o'z ichki bo'linishlariga ega. sohalar; tillar; lug'at tuzish; davrlar; tarjima maktablari bo'yicha ham bo'linadi.

Tarjima xillari quyidagicha: 1. Bir tildan ikkinchisiga – qardosh yoki qardosh bo'lmagan tilga tarjima qilish. 2. Qadimiy davr tilidan o'sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish. 3. Muayyan tilning u yoki bu shevasidan adabiy tilga tarjima qilish. Bundan tashqari, mana bunday tasniflash ham mavjud: uzoq tillardan tarjima; yaqin tillardan tarjima; qadimiy tildan zamonaviy tilga tarjima, ya'ni tabdil.

Har bir davrning o'z tarjima tamoyillari bo'lgan. O'tmishda, asosan erkin va ijodiy tarjima, ko'pincha ularning o'zaro omuxta shakli amalda bo'lgan, ya'ni ham erkin, ham ijodiy. Ba'zan mutlaqo erkin tarjimalar ham uchrab turgan. Adekvat tarjima tushunchasi keyingi asrlar mahsuli. Quyidagi tarjima usullari mavjud: adekvat (mukammal); erkin; ijodiy; so'zma-so'z; hijjaviy; aniq; taglama; tabdil; adaptatsiya.

Tarjima amaliyotida quyidagi usullarni ko'rish mumkin:

Adekvat tarjima – har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima (Lotincha “adekvatus” – “tenglashtirilgan, teng, muvofiq, aynan”).

“Erkin tarjima bu asl nusxaning g'oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o'zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima tamoyilidir. Bundan tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi. Erkin tarjimaning ham turli xillari mavjud. Sharq mumtoz she'riy tarjimasiga kelganda, erkin tarjima shunda ko'rinadiki, bu usulni qo'llagan tarjimon aksariyat holda, muallifning bayon tarzida she'riy san'atlardan foydalanish, ifoda va tasvirlarini chetlab o'tib, ular o'rniga o'zi ijod qilgan san'atlar va ifodalarni taqdim etadi. Bunday tarjimon asl nusxa panohida o'z she'rini taqdim etgan, o'zining ijodiy manerasini ko'rsatgan bo'ladi.

Masalan, Sayfi Saroyi tarjimasidagi Sa'diy Sheroziyning “Guliston”, Qutb Xorazmiy tarjimasidagi Nizomiy Ganjaviyning “Xusrav va Shirin” asarlari. “Kalila va Dimna” tarjimalari ham.

Ijodiy tarjima esa asar g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini o'zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo'lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so'zma-so'z tarjimaga ham, o'zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy

* *S i n x r o n i z m* – (grekcha) ikki yoki bir necha hodisa, protsess va shu kabilarning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lishi. *S i n x r o n* – bir-biriga mos ravishda, ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir bo'lgan yoki bo'ladigan, sinxronizmga, sinxronlikka ega bo'lgan. *S i n x r o n l a m o q* – ikki yoki bir necha hodisa, protsess va sh.k.ning bir-biriga mos ravishda ayni bir vaqtda, bab-baravar sodir qiladigan bo'lmoq. *S i n x r o n i s t* – nutqni notiq bilan ketma-ket tarjima qilib boruvchi tarjimon.

tarjima orqali kitobxonga manzur bo'ladigan so'z san'ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni" [1:75-76] taqozo etadi. Masalan, A.Oripov tarjimasidagi Qaysin Quliyevning "Hayrat" she'ri. E.Vohidov tarjimasidagi "Sergey Yesenin" she'rlari. Xurshidning Hofizdan qilgan tarjimalari.

"Guliston" besh marta tarjima qilingan (Sayfi Saroyi, Ogahiy, Mulla Murodxo'ja, Ahmad Jalil, G'afur G'ulom – Sh.Shomuhamedov – R.Komilov). Ularni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, "tarjimaga bo'lgan talab zamonlar o'tishi bilan o'zgarib turgan. Agar Abu Rayhon Beruniy erkin tarjimini tanqid qilib, original ruhini boshqa tilda aniq qayta yaratishni talab qilsa, Muhammad Temur erkin tarjima tarafdori sifatida maydonga chiqadi. Ogahiy ijodiy erkin tarjima prinsipiga amal qilsa, Murodxo'ja tarixiy-lingvistik aniqlikka intilib, so'zma-so'z tarjima aqidlariga sodiq bo'lib qoladi" [1:89].

Asl matn va qayta tarjima talablari. Jahon so'z san'ati durdonalarining bir necha tarjima nusxalarining maydonga kelishi tarjima amaliyotida ijobiy hodisa hisoblanadi. Bunday tarjimalar turli davrlarda emas, bir davrda ham amalga oshirilishi mumkin. Misol uchun, braziliyalik adib Paulo Koelening "Alkimyogar" asarini bir vaqtning o'zida uch tarjimon – Ozod Sharafiddinov, Ahmad Otaboyev, Aziz Saidlar tarjima qilishdi. Bu, bir tomondan, jahon adabiyotida voqea bo'lgan asarga davr talabi bo'lsa, ikkinchidan, mohir adib "panjasiga panja urish", o'z qalami, iste'dod kuchini sinab ko'rish edi. Bir vaqtning o'zida bir nechta tarjimalari maydonga kelgan Maxtumlul she'rlari to'g'risida ham shunday deyish mumkin. Chunki sho'ro davrida shoir asarlari birgina J.Sharipov tomonidan tarjima qilinib, qayta-qayta chop etilgan bo'lsa, mustaqillikdan keyin uning ijodiga o'ndan ziyod tarjimonlar murojaat qildi. Natijada, bir davr ichida ko'plab she'rlarning bir necha tarjima nusxalari paydo bo'ldi.

Qayta tarjima masalasi o'zbek tarjimashunosligida maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas, balki yo'l-yo'lakay mulohaza bildirib o'tilgan, xolos. Tarjimashunos olim E.Ochilov ruboiy tarjimasida misolida bu adabiy hodisani bir qadar o'rgangan. Uning yozishicha, "qayta tarjimaga quyidagi omillar sabab bo'ladi:

1. Yillar o'tishi bilan har qanday tarjima lisoniy jihatdan eskiradi va yangi davr o'quvchisi uni o'qishga qiynaladi, tushunishi mushkullashadi...

2. Har qanday mutarjimning ham buyuk so'z ustalari "panjasiga panja" urgisi, o'z imkoniyati, iste'dod kuchini chamalab ko'rgisi keladi va qayta tarjimaga qo'l uradi...

3. Ilgari vositachi til orqali o'g'irilgan asarlarni endilikda asliyatdan tarjima qilish keng quloch yozyapti...

4. Avvalgi tarjimalarning saviyasi pastligi, talabga javob bermasligi ham qayta tarjimalarni zarur qilib qo'yadi".

Keyinchalik olim "Badiiy tarjima masalalari" nomli o'quv qo'llanmasiga "Qayta tarjima muammosi"ni alohida mavzu sifatida kiritib, qayta tarjimaga sabab bo'luvchi omillar, qayta tarjima talablari va qayta tarjima zarurati kabi masalalarni atroflicha muhokama qiladi [5:34-68].

Qardosh tillardan tarjimada ahvol birmuncha boshqacha: misralar, bayt va bandlar, ba'zida hatto butun boshli she'rlar ham tarjima tiliga deyarli aynan ko'chishi mumkin. Bunda tarjimonning mahorati asliyat tiligagina xos bo'lgan, yoki arxaik va xorijiy so'z hamda iboralarni qanchalik mohirlik bilan o'g'irganida namoyon bo'ladi.

Ayni jihatdan qardosh tillardan tarjima qiluvchi tarjimonlarni ko'chirmakashlikda ayblash qiyin, ba'zida hatto mumkin ham emas. Maxtumlul asarlari tarjimalari orasida ham o'zidan oldingi tarjimalarni qaysidir jihatdan yangilagan, to'ldirgan, ularga sayqal bergan, boshqa bir ma'no qirrasini ochgan, ulardagi xato-kamchiliklarni bartaraf etgan tarjimalar bilan birga avvalgi tarjimalardan biror-bir jihatdan afzalligi bo'lmagan, ba'zida badiiyatiga ko'ra ular darajasiga ham yetmagan namunalar ham oz emas.

O'zbek-turkman adabiy aloqalarini mustahkamlanishida, o'zbek tarjimashunosligi masalalarini tadqiq qilishda, shuningdek, o'zaro yaqin tillardan she'riy asarlar tarjimasida o'rganilishining kun tartibiga qo'yilishida Maxtumlul adabiy merosiga doir manbalarning o'ziga xos o'rni bor. Aynan ushbu shoir ijodidan qilingan tarjimalar o'zbek tarjimashunosligida turli ilmiy-nazariy muammolar muhokamasi uchun imkon beradi. Shunday jiddiy masalalar jumlasiga qayta tarjima muammosi ham kiradi. Maxtumlul asarlarining tarjimonlari nihoyatda ko'p. Ular o'z faoliyati davomida ko'lam va hajmiga ko'ra turlicha tarjima mahsullarini taqdim qilishdi. Albatta, ulardan qaysi biri atqoli turkman so'z san'atkorining birgina (M.Shayxzoda, M.Ali), qaysi biri bir necha (J.Jabborov, O.Safarov, N.Muhammad, M.Pirriyev, A.Hamro) she'rini o'zbekchalashtirgan bo'lsa, boshqalari alohida she'riy to'plamlarini o'z tarjimalarida (J.Sharipov, M.Ahmad, O.To'rayev, M.Kenjabek, A.Jumayev, J.Zulpiyev, E.Ochilov, M.Azim) e'lon qilishdi. Buning natijasida shoir she'rlaridan ko'pchiligining ikki, uch, ayrimlarining hatto olti, yetti tarjima nusxalari paydo bo'lganki, bu adabiy manbalar tabiiy ravishda qayta tarjima muammosi muhokama qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Maxtumlul she'rlarining J.Sharipov tomonidan amalga oshirilgan ilk tarjimasida hali lisoniy jihatdan eskirib ulgurmagan. Shuningdek, shoir asarlari oraliq vositachi til orqali emas, balki asliyatdan – turkmanchadan o'g'irilgan. Demak, bu tarjimalarga yuqorida keltirilgan tasnifning faqat ikkinchi va to'rtinchisini tatbiq qilish mumkin: ya'ni ijodiy musobaqa, o'z qalami kuchini sinab ko'rish istagi hamda turkman so'z san'atkori ijodiga mansub ko'plab namunalar tarjimasining saviyasi pastligi va ancha-muncha xato-kamchiliklar bilan tarjima qilinganligi.

J.Sharipov tarjimalarining yutuq va kamchiliklari to'g'risida matbuotda chiqishlar qilingan, turli to'plamlarda ayrim maqolalar e'lon etilgan bo'lsa-da, ular maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Ularda asosan, "tarjimonning soxta ekvivalentlar domiga tushib qolgani, tillararo paronimlarni farqlamagani kabi qardosh tillardan tarjimaning eng asosiy muammosi bo'lgan masalalarga e'tibor qaratilgan" [7:52-61].

Albatta, mushtarak an'analar, yagona she'riy tizim asosida rivojlangani jihatidan o'zbek va turkman she'riyatini bir-biriga o'g'irishda qator qulayliklar mavjud: vazn bir – aruz yoki barmoq, baytu bandlar tuzilishi o'xshash, qofiya, radif va badiiy san'atlarning ko'pchiligi har ikki milliy she'riyatda ham mavjud. Binobarin, misra, baytu bandlar, ba'zida hatto butun-butun she'rlarni bir tildan ikkinchisiga aynan o'tkazish imkoniyati bor ekan, albatta, bunday tayyor imkoniyatdan foydalanish kerak. Lekin hamisha ham so'zlar, satrlar, qofiya va radiflar aynan tarjima tiliga o'tavermaydi – goh sof turkmancha, goh arabcha-forscha so'zlar, qofiyalar misrayu bandlarning

qurilishini o'zgartirishni taqozo qiladi. Haqiqiy mutarjimning badiiy mahorati aslyatga muvofiq so'z va qofiyalar topa olishi hamda she'rning g'oyaviy mazmunini tugal saqlay bilishida ko'rinadi. J.Sharipov o'z tarjimalarida yangi qofiyalar izlab topish, band qurilishini o'zgartirishdan qochib, arxaik va turkmancha so'zlarni o'quvchiga tanish-notanish ekanidan qat'i nazar, asosan, aynan qoldirib, matn osti havolasida ularga izoh berish yo'lidan boradi. *Masalan, aslyatda:*

Бир төрт атлы гелди, бары себзебаз,
Асалары яшил, аты теблебаз,
“Межлис халқасыны гурманг бейле аз,
Адам көпдүр, улуг гургул!” дийдилер...

Mazmuni: (*To'rt otliq keldilar. Barchasi yashil kiyingan. Hassalari ham yashil. Ostlarida otlari o'ynoqlab turibdi. Odam ko'p, shuning uchun majlis doirasini buncha tor qilmay, katta qilib quringlar, dedilar.*)

Bu yerda qofiya bo'lib kelgan *sabzaboz* va *tablaboz* so'zlarining o'zbek o'quvchisiga tushunarsiz ekanining o'ziyoq qofiya tartibini, demak, bandning qurilishini o'zgartirish zaruratini taqozo qiladi. J.Sharipov esa yangi qofiya izlash mashaqqatli yumush ekanini biladi:

Тўрт отли келдилар, бари сабзабоз,
Ҳассалари яшил, оти таблабоз,
“Мажлис даврасини курманг бунча оз,
Одам кўпдир, катта кургил”, дедилар...

Qaysi maqsad bilan bo'lmasin, muayyan asarning yangi tarjimasiga qo'l urilar ekan, uning avvalgi tarjimalardan nimasi bilandir ustunligini ta'minlashga harakat qilish kerak. Chunki o'zidan oldingi tarjimaning biror nuqsoni, xatosini tuzatmasa, o'zgacha adabiy talqinini vujudga keltirmasa, badiiy jihatdan bir pog'ona baland ko'tarmasa, yangi tarjimaga hojat bo'lmaydi. Bu qayta tarjimaning eng asosiy adabiy-nazariy tamoyili sanaladi. Maxtumquli tarjimonlari esa ko'pincha badiiy jihatdan J.Sharipovdan o'tib ketmagan, u yo'l qo'ygan xatolarni tuzatmagan o'rinlar uchraydi. Natijada, dastlabki xato ikkinchi,

uchinchi, hatto to'rtinchi tarjimalarda ham aynan takrorlanib, shoir asarlarining yangidan-yangi tarjimalariga ko'chib yurgani kuzatiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan she'r tarjimasiga oradan yarim asr o'tib qo'l urgan M.Kenjabek ham, A.Jumayev va J.Zulpiyev ham o'zlaridan oldingi tarjimonlardan bir qadam olg'a ketgani, biror ustunlikka erishganlari sezilmaydi. Fikrimizning isbotini yuqoridagi band tarjimasi misolida ko'rishimiz mumkin: M.Kenjabek tarjimasi:

Тўртта отлик келди, бари сабсабоз,
Асолари яшил, оти таблабоз.
“Мажлис халқасини курманг бунда оз,
Одам кўпдир, катта кургил!” – дедилар...

Tushunarsiz bo'lgani uchun tarjimonlar *sabsaboz* so'ziga – *yashil kiyimli, tablabozga* – o'ynoqi deb izoh berganlar. Lekin bu yerda oz so'zi ham izohtalab bo'lib, J.Sharipov unga “*bu yerda tor ma'nosida*” deb izoh keltirgan, M.Kenjabek, A.Jumayev va J.Zulpiyevlar esa hatto shuni ham lozim topmaganlar:

Тўрт суворий келди, бари сабсабоз,
Асолари яшил, оти таблабоз.
“Мажлис халқасини курманг бўйла оз,
Одам кўпдир, улуг кургил!” дедилар...

A.Jumayev va J.Zulpiyevlar tarjimasida atay arxaik so'zlarni qo'llash mayli seziladi. Masalan *otliq* so'zi o'rniga *suvoriy*, *bunday* o'rniga *bo'yla* so'zini ishlatadi. Shu bahona bir muhim fakti aytib o'tish kerak: J.Sharipov iloji boricha o'z tarjimalarida zamonaviy, barchaga tushunarli so'zlarni qo'llagan edi. Shu bois uning tarjimalari oradan yarim asr o'tsa hamki, til jihatidan eskirgan emas. M.Kenjabek hamda A.Jumayev va J.Zulpiyevlar o'z tarjimalarida arxaik so'zlar – qadim turkiy, arabiy va forsiy so'zlarga ko'proq murojaat qilishadi. Bu ularning tarjimalari tilini og'irlashtirib, tushunilishini qiyinlashtirib yuborgan. Bundan J.Sharipov tarjimalari til jihatidan ham keyingi tarjimalardan ustunligi seziladi.

Adabiyotlar

1. Комилов Н. Бу қадимий санъат // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 3-китоб. – Тошкент: 1976.
2. Владимирова Н. Иллат қаердан бошланади?//Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-к. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1985.
3. Олимов С., Матёкубов А. Лермонтовнинг ўзбек таржимонлари. – Т.: «Фан», 1989.
4. Илёсов Б.А. Практика перевода. – Термез: «Жайхун», 1992.
5. Сапаева Ф. Д. Махтумқули асарлари таржималарининг киёсий таҳлили. – Т.: “Tafakkur bo'stoni”, 2020.
6. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. – Т.: Sharqshunoslik instituti, 2014.
7. Курамбоев К. Махтумқули шеърляти Ўзбекистонда. – Т.: “Фан”, 1984.
8. Тайлакова М., Сапаров М. Махтумқули асарлари тилининг ўзбекча таржимасига баъзи бир қайдлар. Ўзбек филологияси масалалари (Илмий асарлар тўплами). – Т.: “Фан”, 1990.
9. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Т.: “Фан”, 1966.
10. Азимов М. Меҳнат ва маҳорат меваси (Сўнгсўз). // Махтумқули-Фироғий. Сайланма. – Т.: “O'zbekiston”, 2008.
11. Махтумқули. Булбул ноласи (E.Ochilov tarjimasi). – Т.: “Hilol-nashr”, 2014.

РЕЗЮМЕ. Ushbu maqolada she'riy tarjimada janriy muammolarni tadqiq etish, xususan tarjimada so'z va tushunchalarni aks ettirish masalasiga asosiy e'tibor qaratildi. Tarjima ijrosiga ko'ra, yozma tarjima xarakteriga ko'ra turlari, vazifalari ilmiy nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье основное внимание уделено исследованию жанровых проблем поэтического перевода, в частности, вопросу отражения слов и понятий в переводе. По исполнению перевода, по характеру письменного перевода, по видам, задачам дается научное теоретическое и практическое обоснование.

SUMMARY. This article focuses on the research of genre problems in poetic translation, in particular the question of the reflection of words and concepts in translation. According to the execution of the translation, according to the nature of the written translation, the types, functions are scientifically theoretically and practically justified.